



Dilnoza PAZILOVA,
TAFU katta o'qituvchisi
E-mail: Pazilovadilnoza1014@gmail.com

TATU dotsenti D.Zaripova taqrizi asosida

OLIV TA'LIM MUASSASALARI KASB- TA'LIM TALABALARI AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA FAOLIYAT TUZILMASINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada Oliy ta'lim muassasalari kasb-ta'limi yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqot natijasida OTM kasb-ta'limi yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini integratsion-analitik, imitatsion-kreativlik va case-initsiativlik ko'nikmalari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat tuzilmasi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Axborot kompetentligi, kasb-ta'lim, raqamli savodxonlik, faoliyat tuzilmasi, metodologik asoslar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СТРУКТУРЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО РАЗВИТИЮ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В статье рассмотрены теоретико-методологические основы развития информационной компетентности студентов направления профессионального образования в высших учебных заведениях. В результате исследования предложена структура деятельности, направленная на развитие информационной компетентности студентов направления профессионального образования на основе интеграционно-аналитических, имитационно-креативных и кейс-инициативных навыков.

Ключевые слова: Информационная компетентность, профессиональное образование, цифровая грамотность, структура деятельности, методологические основы.

THEORETICAL ANALYSIS OF THE ACTIVITY STRUCTURE FOR DEVELOPING INFORMATION COMPETENCE OF VOCATIONAL EDUCATION STUDENTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

The article highlights the theoretical and methodological foundations of developing information competence among students of vocational education in higher education institutions. As a result of the research, an activity structure is proposed, aimed at developing the information competence of vocational education students based on integration-analytical, simulation-creative, and case-initiative skills.

Key words: Information competence, vocational education, digital literacy, activity structure, methodological foundations.

Kirish. Texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda, ta'lim sohasida raqamli vositalarning roli tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, YUNESKO tomonidan qabul qilingan ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar global miqyosda ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, "Learning to Become" tashabbusi doirasida raqamli savodxonlik, axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va umuman, kelajak kasblariga mos kompetensiyalarni shakllantirish yo'nalishlari belgilab berilgan. "AI and Education: Guidance for Policymakers" hujjatida esa sun'iy intellektni o'quv jarayoniga integratsiyalash, shaxsiylashtirilgan ta'limni yo'lga qo'yish va avtomatik baholash tizimlarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan bo'lib, bu raqamli baholash platformalari, jumladan, Testor AI kabi tizimlar uchun nazariy asos vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, "Media and Information Literacy (MIL)" konsepsiyasida ijtimoiy tarmoqlar, onlayn axborot va raqamli muhitda ishlash madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Aynan ushbu loyihalar YUNESKO tavsiyalarining ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etilishiga xizmat qilmoqda va zamonaviy ta'limda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda mustahkam asos bo'lib kelmoqda. [1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy raqamli jamiyatda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bu jarayonda axborot kompetentligini rivojlantirish talabalarining tanqidiy fikrlashi, mustaqil axborot izlab topishi va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jumladan, A.A. Abduraimov bu kompetentlikni raqamli muhitda o'zini mustaqil rivojlantira oladigan shaxs sifatida shakllanishiga asosiy omil deb hisoblaydi. [2]

SH.S. Sagdullayev esa axborot kompetentligini insonning axborot oqimini boshqarish, uni tanlash va undan ongli ravishda foydalanish qobiliyati sifatida talqin etadi.

M.M. Jo'rayev o'z izlanishlarida axborot kompetentligini tanqidiy tafakkur, axborot asosida muammoni hal qilish va mantiqiy fikrlash asosiy ko'nikmalarining manbai sifatida ko'rsatadi. [12]

Shunday qilib, axborot kompetentligi o'zbek olimlarining yondashuvida faqat texnik bilimlar emas, balki tanqidiy va axloqiy jihatlarni ham qamrab oluvchi murakkab, integrallashgan ko'nikmalar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Axborot kompetentligi bo'yicha turli olimlar va tadqiqotchilar turli yondashuv va nazariyalarni ilgari surishgan. Ularning qarashlari axborot kompetentligining mohiyatini, uning ahamiyatini va rivojlanish usullarini yoritib beradi[3],[4].

Quyida xorijiy olimlarning axborot kompetentligi tushunchasiga tahlili va muallifning sintezi jadvali berilgan:

Tahlil (Analiz)	Sintez (Sintez)
Paul G. Zurkowski axborot savodxonligini axborotni samarali izlab topish va foydalanish qobiliyati sifatida ta'riflagan.	Axborotni izlash va undan foydalanish kompetentlikni shakllantirishning asosiy tarkibiy qismidir.
Christine Bruce axborot kompetentligini axborotni anglash va maqsadga muvofiq ishlatish jarayoni sifatida ko'rsatgan.	Axborotni ongli va maqsadli ishlatish — axborot kompetentligining mohiyatidir.
Eisenberg va Berkowitz axborot bilan ishlash bosqichlarini tizimli tarzda belgilab bergan (Big6 modeli).	Axborotni aniqlash, izlash, baholash va foydalanish orqali tizimli axborot kompetentligi rivojlanadi.
Carla List axborot kompetentligini shaxsiy, akademik va professional faoliyatda axborot resurslarini boshqarish ko'nikmasi sifatida talqin qilgan.	Axborot kompetentligi shaxsning turli sohalarida axborot resurslarini samarali boshqarish qobiliyatini mustahkamlaydi.
Shapiro va Hughes axborot savodxonligini ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstda tahlil qilish qobiliyati bilan bog'lagan.	Axborot kompetentligi shaxsning ijtimoiy va madaniy muhitda axborotdan ongli va mas'uliyatli foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasa kasb ta'limi yo'nalishi talabalarining axborot kompetentsiyasini asoslash va uni rivojlantirish jarayonini nafaqat o'rganilgan ilmiy va o'quv ma'lumotlari to'plami sifatida, balki kelajakdagi mutaxassisning turli standart va nostandart vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyati sifatida qaraladigan ta'lim natijalari talablarini hisobga olish zarur. Ushbu aksioma har bir pedagogik xodim tomonidan qabul qilinishi, amalga oshirilishi va zamonaviy ta'limning asosiy maqsadini amalga oshirishiga harakat qilishi kerak[7].


Olimlarning bu qarashlari axborot kompetentligining muhimligini takidlaydi va uning rivojlanishiga qaratilgan turli metodologiyalar va yondashuvlarni tavsiya etadi. Axborot kompetentligini rivojlantirish ta'lim jarayonida, ish faoliyatida va shaxsiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, shaxslarning salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, ta'rifni qisman to'ldirish lozim, chunki, kompetentsiya negizida faqatgina bilimlar emas, balki ko'nikma hamda malakalar ham aks etadi. Agar muallif "bilimlar" negizida ham nazariy ham amaliy bilimlarni nazarda

tutgan bo'lsa, u holda fikrni "nazariy va amaliy bilimlar" shaklida aniq ifodalashi zarur edi.

Tahlil va natijalar. Mutaxassis kasbiy kompetentsiyani egallash asosida kasbiy tayyorgarlik jarayonida faoliyat sub'ektiga aylanadi, qobiliyatli bo'ladi. Ushbu maqsadga erishish uchun har bir ta'lim oluvchi kompetentsiyaga ega bo'lishi kerak, uning muhim tarkibiy qismi axborot kompetentsiyadir. [Ошибка! Источник ссылки не найден.] Axborot kompetentsiyasining mazmuni va tuzilishini asoslash uchun axborot faoliyatni rivojlantirishning maqsadlari, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash zarur. Muammoning yechimi sifatida OTM kasb ta'limi yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligi faoliyati xususiyatlari tuzilmasi ishlab chiqildi bu quyidagicha:

OTM kasb ta'limi yo'nalishi talabalarining axborot kompetensiyasi integratsion-analitik, imitatsion-kreativlik, case-initsiativlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy, metodik asoslarini taxlil etish xamda axborot kompetentligi faoliyat xususiyatlari tuzilmasini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.



1-rasm. OTM kasb ta'limi yo'nalishi axborot kompetentligi faoliyati xususiyatlari tuzilmasi

Axborot kompetentligi tushunchasi va uni rivojlantirishning metodologik asoslarini quyidagi fikrlar bilan to'ldiramiz:

Axborot kompetentligi tushunchasi va uning metodologik asoslari zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Bu tushuncha nafaqat ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashda, balki talabalarining ijodiy potentsialini oshirishda ham asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Axborot kompetentligi rivojlantirishning metodologik asoslari talabalarining ijtimoiy tarmoq texnologiyalari tizimida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.[11,13]

Tadqiqot muammosiga doir adabiyotlarni o'rganish jarayonida shaxsda axborot savodxonligini rivojlantirish masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham

o'rganilib, "axborot kompetentligi" tushunchasi nazariy jihatdan yoritilganligini ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar. Maqolada keltirilgan fikrlarga binoan quyidagi xulosalarga kelamiz:

Oliy ta'lim talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasasi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik vazifa va muammoli vaziyatlarni hal qilishning nostandart usullari va vositalari, amaliy fikrlash madaniyati, kasbiy subyektivlikni, axborot-tahliliy faoliyatda tajriba, innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatini shakllantiradi.

Axborot kompetentligini rivojlantirish: Oliy ta'lim muassasi kasb ta'limi yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini shakllantirish kasbiy-pedagogik vazifalar va muammoli vaziyatlarni hal qilishda nostandart usullar va vositalardan foydalanishni, amaliy fikrlash madaniyatini rivojlantirishni hamda axborot-tahliliy faoliyatda tajriba o'ttirish va innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishni ta'minlaydi. Bu jarayon talabalarning kasbiy subyektivligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. UNESCO, "Information and communication technology (ICT) in education," UNESCO IIEP Learning Portal, 2021. [Online]. Available: <https://learningportal.iiep.unesco.org/en/issue-briefs>. [Accessed: Sept. 11, 2025].
2. Abduraimov A. A., "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim jarayonida ularning o'rni," in Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Jizzakh, Uzbekistan, 2021.
3. Iriste S. and I. Katane, "Digital competence of hospitality students within the context of information and communication technology environment," in Rural Environment. Education. Personality. (REEP), Proc. 14th Int. Sci. Conf., vol. 14, 2021. [Online]. Available: <https://doi.org/10.22616/reep.2021.14.008>
4. Chernyshev D., Maksymiuk Y., Krasyniy Y., Korchova H., and M. Rudenko, "Peculiarities of technique of teaching technical disciplines in the institution of higher education of the building profile," Strength of Materials and Theory of Structures, no. 108, 2022. [Online]. Available: <https://doi.org/10.32347/2410-2547.2022.108.35-62>
5. Muller O. Y., "Pedagogical conditions for forming the project competence of future teachers in the university environment," Vestnik of Samara State Technical University. Psychological and Pedagogical Sciences, vol. 18, no. 3, 2021. [Online]. Available: <https://doi.org/10.17673/vsgtu-pps.2021.3.7>
6. Rozilova D. Kh., "Development of information competence in higher education using social networks and neural networks: Innovative approaches and methods," Sci. J. Res. Educ., Exact Nat. Sci., vol. 4, no. 1, pp. 128–130, Jan. 2025. [Online]. Available: <https://researchweb.uz/index.php/researchedu/article/view/357>
7. Rozilova D. Kh., "Social media digital new form of integrated education," in Practical problems and solutions to the use of theoretical laws in the sciences of the 21st century (PPSUTLSC-2024), vol. 4, no. 7 (special issue, EJAR), May 2024. [Online]. Available: <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/36197/23180>
8. Rozilova D. Kh., "Kompetensiya va axborot kompetensiya atamalarining uzviy bog'liqligi: olimlarning qarashlariga tahlil," Eurasian J. Acad. Res., 2023. [Online]. Available: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7927963>
9. Pazilova D. X., "Masofaviy ta'limning oliy ta'lim muassasalari o'quv faoliyatini boshqarishdagi roli," in Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashda o'qitishning kredit tizimini qo'llash masalalari: Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari, 2020, p. 307.
10. Pazilova D. X., "An'anaviy va kreativ ta'limning oliy ta'lim tizimidagi ahamiyati," in Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashda o'qitishning kredit tizimini qo'llash masalalari: Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari, 2019, p. 335.
11. Pazilova D. X., "Informatizatsiya uchebnogo protsessa vysshego uchebnogo zavedeniya kak uslovie razvitiya IKT kompetentnosti budushchikh prepodavateley," Elektronnyy innovatsionnyy vestnik: Periodicheskiy zhurnal nauchnykh trudov, 2018, p. 35.
12. Jo'rayev M. M., "O'quvchilarda axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik asoslari," Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari, 2020.
13. Dezeen School Shows, "Dezeen School Shows: We've selected eight design and architecture projects celebrating student collaborations," Dezeen, 2024. [Online]. Available: <https://www.dezeen.com>